

MUZEY MATERIALLARI YORDAMIDA DARSDAN TASHQARI
O'QUVCHILARNING TASVIRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Turdibaeva Dilfuza

2 kurs magistranti

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

(Nukus, Qoraqalpog'iston Respublikasi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzey materiallari yordamida darsdan tashqari o'quvchilarning tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari haqida fikr va mulohazalar tutilgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan muzeylar kesimida qarashlar bayon etiladi. Shuningdek, maqolada muzey manbalari bilan tanishish orqali rang tasvir, grafika san'ati haqida ma'lumotlar olish yuzasidan fikrlar izohlangan.

Kalit so'zlar: I.V. Savitskiy muzeyi, rang tasvir grafikasi, mustaqil ishlash texnologiyasi, yog'och o'ymakorligi tasviri, muzey fondi.

O'quvchi yoshlarning intellektual tasvir qobiliyatini tubdan rivojlantirish, shuningdek, ularda turli ijtimoiy vositalar yordamida tasavvur qobiliyatlarini shakllantirishda muzey va muzey materiallarining ahamiyati kattadir. Bugungi kunda o'quvchilarning individual tarzda rivojlanishi yuzasidan ta'limni tashkil etish yuzasidan turli tavsiya va xulolasalar ilm-fan ahliga taqdim etilmoqda. O'quvchi yoshlarning rang tasvir qonuniyatlarini orttirishda ko'rgazmali qurollarning ahamiyati katta ekanligi bilan ajralib turadi.

Bunda muzeylarda qadimdan saqlanib kelinyotgan obidalar, yog'och o'ymakorligi buyumlari, shuningdek, davriy kiyimlar vositasida tasvir qobiliyatining rivojlanishiga yetishish mumkin. "Qoraqalpoq xalqining barcha voyaga yetgan ayollar kashtachilik hunarini egallashgan. Erkaklar esa murakkabroq hunar turlari bo'lmish, yurtalar va musiqiy asboblarni tayyorlash, yog'och o'ymakorligi, zargarlik buyumlari, terini qayta ishlash va boshqalar bilan mashg'ul bo'lishgan. Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy-ro'zg'or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog'och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to'qishgan shuningdek, qiyqimlar to'qimachiligi bilan shug'ullanishgan". [1] Haqiqatdan ham, o'quvchi yoshlarning tasvir mahorati rivojlantirish borasida peyzaj, natyurmyortlardan tashqari tarixiy obidalar bilan ishlashlashish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish mumkinki, Qoraqalpoq milliy hunarmandchilik san'ati, milliy urf-odat va qadriyatlarining barchasi muzeylarda jamlangan bo'lib, rang tasvir grafikasiga qiziquvchi kishilar uchun o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, muzey

materiallari yordamida darsdan tashqari o'quvchilarning tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari xususida quyidagi olillarni sanab o'tish mumkin. Ular quyidagicha:

- muzey yodgorliklari rang tasviri bilan ishlash;
- muzey fondida saqlanuvchi zeb-ziynat buyumlari tasviri bilan ishlashish;
- muzey fondida saqlanuvchi peyzaj tasvirlari bilan ishlashish;
- muzey fondida saqlanuvchi natyurmort tasvirlari bilan ishlashish;
- haykallar, tosh qoldiqlari tasvirlari bilan ishlash;
- muzey fondida saqlanuvchi tarixiy kiyim-kechaklar tasviri bilan ishlashish;
- muzey fondida saqlanuvchi o'simliklar dunyosi tasviri bilan ishlashish;
- muzey fondida saqlanayotgan hayvonot dunyosi tasviri bilan ishlashish va boshqaqalar.

Bunda asosan, maktab va oliy ta'lim o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlar tizimida mustaqil amalga oshiriluvchi jarayon sifatida joriy etish orqali ham natijalarga erishish mumkin. "Qoraqalpog'iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiy arxeologik va me'moriy yodgorliklari, o'ziga xos xalq og'zaki ijodi, ijro san'ati, urf-odatlar va milliy hunarmandchilik faoliyatida aks etadi. Qoraqalpog'iston hududida ko'plab arxeologik va me'moriy yodgorliklar bo'lib, ular asosan mudofaa binolari va aholi turar joylari bo'ylab qad rostlagan bir necha ajoyib qal'alar misolida o'z aksini topadi".[2] Shuningdek, muzey fondlarida saqlanuvchi manbalar, foto sur'atlar, rang tasvir namunalari bilan aloqador ma'lumotlar, ijodiy ishlar haqida ham batafsil ma'lumotlar muzey xodimlari tomonidan taqdim etiladi. Muzey materiallari yordamida daradan tashqari o'quvchilarning tasvirlash qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri ulaega tayyor ko'rgazmalarini ko'rsatish, ular tasavvurida ijodiy yondashishga moyillikni yaratish muhim vositalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada I.V. Savetsky nomidagi Qoraqalpog'iston davlat muzeyida saqlanuvchi eksponatlar xilma xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham maktab o'quvchilarining, talabalarning muzeylarga tashrifidan ko'zlanadigan maqsad quyidagichadir. Bular: ijodiy fikrlashni oshirish, psixologik tasvir mahoratini oshirish, qadimiy tasvir uslublarini o'rganish, milliy boyliklarni o'rganish, tahlil etish, madaniy hordiq olish va boshqalar.

FOYDALANILGANA ADABIYOTLAR:

1. Baratboyev B.M. "Naqqoshlik va yog'och o'ymakorlik san'atining rivojlanishi" maqola. "Экономика и социум" - 2021
2. G'aybullayev Ruslan Asliddinovich. "Qoraqalpog' xalqining amadaniyati" maqola. Humanity and Science Congress – 2022